


115. Bo'luvchilar va karralilar

Yondosh mavzu:
an'analar, Navro'z.

Bo'luvchi, karrali,
ko'paytuvchi.



Bo'sh kataklarni to'ldiring.



1. Navro'zga bag'ishlangan bayramda 8 nafar qiz milliy xalq raqslarini namoyish etishadi. Ularni bir nechta teng guruhlariga bo'lish kerak. Har bir guruhda necha nafar qiz bo'lishi mumkin?



2. a) 28, 45, 35, 64, 56, 49, 29, 14, 17, 42 sonlar qatoridan 7 ga bo'linadigan sonlarni;
b) 2, 5, 6, 7, 3, 4, 9, 8 sonlar qatoridan 24 soni bo'linadigan sonlarni ko'chirib yozing.

3. 9, 5 va 45 sonlaridan foydalanib, 4 ta tenglik yozing. Bo'luvchilar va karralilarni ayting.

Bo'luvchilar va karralilar

$$a : b = c$$

a soni – b sonining karralisi.

b soni – a sonining bo'luvchisi.

4. Mahmud 64 soni 7 ga karrali desa, Laziz 6 soni 42 ning bo'luvchisi deydi. Ulardan qaysi biri nohaq?



5. a) 5 ga karrali bechta son;
b) 9 ga karrali uchta son o'ylang.



6. Azim bilan Suxrob bir-birlariga sonlar haqida topishmoq aytishdi.

Azim: U 10 dan kichik hamda 2 va 3 ga karrali.

Suxrob: U ikki xonali va 9 ga karrali, uning birinchi raqami 6.


Azim va Suxrob qanday sonlarni aytishgan?



7. Sumalak tayyorlashning retseptlaridan birida undirilgan 1 kg bug'doyga 4 kg un qo'shish kerak bo'ladi.
8 kg bug'doyga qancha un kerak bo'ladi?



8. Sxemani to'ldiring va masalani yeching.
Bahorgi yarmarkada sotuvchi 28 ta taqinchoq, taqinchoqlardan 9 ta kam loydan yasalgan haykalcha, taqinchoq va haykalchalar birgalikda qancha bo'lsa, shuncha do'ppi sotdi. Sotuvchi hammasi bo'lib nechta buyum sotgan?



9. Uzunligi 20 katak bo'lgan kesma chizing. Uni siz nechta teng bo'lakka bo'la olasiz? Barcha variantlarni yasang.



10. a) 12, 63, 45, 21, 28, 27, 36, 72 sonlar qatoridan 9 ga karrali sonlarni;
b) 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 sonlar qatoridan 30 sonining bo'luvchilarini ko'chirib yozing.